

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA VATANPARVARLIK RUHIDAGI
SHE'RLARNI O'QITISH METODIKASI**

Majidova Zarina Farhodovna

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi,*

Ilmiy rahbar: v.b prof. Shodiyev Faxriddin

Tel: +998 93 827 99 66

shodiyevbt@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda vatanparvarlik ruhidagi she'rlarni o'qitish metodikasi tahlil qilinadi. She'riyatning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, ularni o'qitish usullari va samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda ifodali o'qish, suhbat, izohli o'qish va interfaol metodlardan foydalanish muhimligi yoritiladi. Shuningdek, bunday she'rlarni tanlash mezonlari ham tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Vatanparvarlik, boshlang'ich ta'lim, izohli o'qish, she'riyat, ta'limiy metodlar, ifodali o'qish, badiiy tahlil, interfaol metodlar, milliy g'urur, tarbiya.*

Kirish

Boshlang'ich ta'lim – bolalarning asosiy bilim va axloqiy qadriyatlari shakllanadigan muhim bosqichdir. Ushbu davrda o'quvchilarning Vatanga bo'lgan muhabbati va milliy qadriyatlarga sadoqatini shakllantirish uchun badiiy adabiyotdan, xususan, vatanparvarlik ruhidagi she'rlardan keng foydalanish mumkin. She'riyat ta'sirchanligi, hissiyoti va badiiy go'zalligi bilan bolalar ongiga tez singadi hamda ularda Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni oshiradi. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda vatanparvarlik ruhidagi she'rlarni o'qitish metodlari va ularning ta'limiy ahamiyati yoritiladi.

Vatan o'zi nima?



Donishmandlardan biri: "Vatan - bu sening kindik qoning tomgan tuproq",
- desa, ikkinchisi: "Vatan - bu sen suygan odamlar manzili!" - deydi. Boshqasi:
"Vatan - millat xotirasi", - deb zavqlanadi.[4. 4-sinf 1-qism 7-bet]

Vatan - aslida eng chiroyli soʻz, eng chiroyli taqdir. Inson tugʻilishidan ilgariyoq unga ona, ona taqdirga esa Vatan bitiladi. Bu bitikni tanlab yoki oʻzgartirib boʻlmaydi. Bu ikki soʻzni bir biridan ayro tasavvur etish mumkin ham emas.[5. Narzulla Joʻrayev.6-bet] Vatan bitta, Ona bittadir.[5. 3-bet]

Vatan...Ona... Bu soʻzlar har safar tilga olinganda odam qalbida allaqanday hissiyotlar, tasavvurlar, tuygʻular uygʻonadi. Biroz oʻychan, ammo, lazzatli, faxrli, mehr va muruvvatga qorishib ketgan iftixor tuygʻulari qalbni junbushga keltiradi.[5. 3-bet] Vatan haqida juda koʻp shoirlarimiz oʻzlarining eng latif soʻzlarini aytishgan, eng goʻzal satrlarini bitishgan.[5. Narzulla Joʻrayev.6-bet] Vatanparvarlik – yosh avlod tarbiyasining asosiy yoʻnalishlaridan biridir. Boshlangʻich maktab darsliklarida bu mavzudagi sheʼrlarga alohida oʻrin berilgan. Ularda Vatan, xalq, tarixiy qahramonlar, ota-bobolar jasorati, mustaqillik va bayroq kabi muhim tushunchalar aks ettiriladi.[7. ziyo.uz] Bundan tashqari sheʼrlarda Vatanga muhabbat, sadoqat, milliy gʻurur kabi oliy hissiyotlarni uygʻotuvchi ilhomboxsh tuygʻular mavjud.

Vatanim bor - baxtim bor

Kavsar Turdiyeva

Xizmat qilay elimga,
Quvvat boʻlib diliga.
Har kun reja tuzaman,
Oʻqib, uqib oʻsarman.
Yurtim menga choʻzar qoʻl,
Deydi: "Bolam, sodiq boʻl".
El - qudrati chin qudrat,
Vatan sha'ni sarbaland.

Men shu yurtning boʻlagi,



Bordir unga keragim.

Vatanimni yashnatish -

Eng zo'r orzu-tilagim. [1. 1-sinf 1- qism 16-bet]

Bu she'rda Vatanga xizmat qilish, uning uchun sodiq farzand bo'lish, Vatanning bir bo'lagi ekanligini his qilish, yurt kelajagi u kabi yosh avlod qo'lida ekanligini sezish bosh mavzu sifatida qaraladi.

Boshlang'ich ta'lim o'qish savodxonligi darsliklariga yana shunday she'rlar qo'yilganki, unda o'tgan bobo kalonlarimizga hurmat, havas va o'zgacha g'urur tuyg'ulari ufurib turganini, mehmondo'st, bag'rikeng xalq ekanligimizga alohida e'tibor qaratilganini va tilimizga nisbatan faxr tuyg'usi chuqur singdirilganini ko'rishimiz mumkin.

Yangi avlod

Abdulla Avloniy

Aziz ota-onamizning qalqonimiz,

Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga inon.

Fidodir bu qutlug' Vatanga jonimiz,

Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga inon.

Al-Buxoriy, at-Termiziy hazrat bizga,

Ulug'beg-u al-Farg'oniy savlat bizga.

Temur bobo, Manguberdi davlat bizga,

Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga inon.

Yurtning do'stga ochiq bag'ri bag'rimizdir,

Alpomishning yovga qahri qahrimizdir,

Navoiyning turkiy tili faxrimizdir.

Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga inon.

[2. 2-sinf 2-qism 53-bet]

She'rlarni o'qitishning samarali metodlari.

Vatanparvarlik ruhidagi she'rlarni o'qitishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Ifodali o'qish usuli



2. She'r ustida suhbat va tahlil

3. Yodlash va ifoda qilish

4. She'r mazmunini tasvirlash

5. Guruhlarda ishlash va muhokama

6. Izohli o'qish. Izohli o'qishga XIX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K.

D. Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarni «ongli, tushunib, o'ylab o'qishga» o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni «Izohli o'qish» deb nomlaydi.[6. Boshlang'ich ta'limda...213-bet]

Interfaol metodlardan foydalanish

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.[6. Boshlang'ich sinflarda...212-bet]

Zamonaviy ta'limda interfaol usullardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

1."Rolli o'yin"

O'quvchilar she'rdagi obrazlar, voqealar yoki syujetlarni jonlantirib, rolda chiqish qilishadi.

2."Fikrlar daraxti"

Dars davomida o'quvchilar she'rdagi asosiy g'oyani daraxt ildizlariga yozishadi va shu asosida daraxt shoxlariga qahramonlar yoki voqealarni joylashtirishadi.

3. Bahs-munozara

She'rning g'oyasi asosida o'quvchilar o'rtasida munozara yuritish."Vatanparvarlik hozirgi kunda qanday namoyon bo'ladi?". [7. ziyo.uz]

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Unga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lim beruvchining faoliyati deb qarash lozim.

Xulosa



Boshlang'ich ta'limda vatanparvarlik ruhidagi she'rlarni o'qitish nafaqat bolalarning badiiy-estetik didini shakllantirishga, balki ularning Vatanga bo'lgan muhabbati, ajdodlarga bo'lgan faxr tuyg'usi, qolaversa, milliy g'ururi ortishiga xizmat qiladi. Samarali metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning she'riyatga qiziqishini oshirish, ularning vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish mumkin. Shu bois, o'qituvchilar she'rlarni to'g'ri tanlash va to'g'ri yetkazib bera olishi lozim. Zero, niholga ilk suv quyguvchi inson boshlang'ich ta'lim muallimidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 1-sinf. O'qish savodxonligi
2. 2-sinf. O'qish savodxonligi
3. 3-sinf. O'qish savodxonligi
4. 4-sinf o'qish savodxonligi
5. Vatan haqidagi eng sara she'rlar "Sen onamga o'xshaysan, Vatan", Narzulla Jo'rayev.
6. Boshlang'ich ta'limda onatili va uni o'qitish metodikasi
7. <https://www.ziyo.uz>